

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТ ЖАҲОН ТИЛЛАРИ УНИВЕРСИТЕТИ

**ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИСТИКА ФАКУЛТЕТИ ХАЛҚАРО
ЖУРНАЛИСТИКА НАЗАРИЯСИ ВА АМАЛИЁТИ КАФЕДРАСИ**

“Жаҳон журналистика асослари” фанидан

РЕФЕРАТ

Мавзу: ОАВда реклама

Илмий раҳбар: Санобар Жуманова

Бажарди: Миржаҳон Юсупов

ТОШКЕНТ-2015

Reja:

I- Kirish .

II-Asosiy qism:

1- Janr tushunchasiga ta'rif

2- Jurnalistikada axboriy janrlarning ahamiyati.

4- Badiiy publitsistik janrlarhaqidayevropa va o'zbek adiblarining fikrlari.

Xulosa

Kirish

Bu hayot tasdiqlagan, o'zimiz shohid bo'lib, ishtirok etayotgan haqiqatdir. Mamlakat tarixi hech vaqt hozirgichalik ommaviy axborot vositalari e'tibor topmagan. Tarixda ilk bor OAV uchun huquqiy asoslar yaratilganligi, jurnalistning erkin ijod qilishi uchun qonunlar qabul qilinganligi sababli, jurnalistikaning rivoj topmoqda. Bugungi kunda jahon axborot maydonida raqobat qila oladigan, milliy o'zbek jurnalistikasi vujudga kelganligi, Milliy matbuot markazi, O'zbekiston Jurnalistlar ijodiy uyushmasi, Elektron OAV Milliy Assotsiatsiyasi kabi jurnalistlar faoliyatini qo'llab quvvatlaydigan tashkilotlar barpo etilganligi ham istiqloq berganne'matdir. OAVni "to'rtinchi hokimiyat" deb ataydilar. Biz jurnalistlar ham mamlakatimiz matbuoti, radio, televideniya amalda "To'rtinchi hokimiyat" darajasiga yetkazish yo'lida astoyidil harakat qilishimiz lozim. Buni esa muhtaram Prezidentimiz tabiri bilan aytganda "Axborot erkinligini ta'minlamasdan, OAV ni odamlar o'z fikri va g'oyalarini, sodir bo'layotgan voqealarga erkin ifoda etadigan minbarga aylantirmasdan turib, amalga oshirib bo'lmaydi." Yurtboshimiz bu vazifalarni amalga oshirish uchun fikr yuritarkanlar, eng avvalo, OAV iqtisodiy erkinligini ta'minlash lozim va shu munosabat bilan jamoatchilik fondini ilgari surish fikrini aytib o'tdilar.

Bu- mamlakatimiz jurnalistlarining ko'nglidagi orzu edi. Bu fikrni biz katta mamnuniyat va minnatdorlik bilan qarshiladik. Zero, bu fondning tashkil etilishi

mamlakatimizda iqtisodiy jihatdan o'zini o'zi taminlay oladigan elektron, bosma va boshqa turdagi, shu jumladan, xususiy axborot vositalarini o'z ichiga oluvchi davlat va nodavlat OAVning yaxlit tizimini shakllantirish jarayonini qo'llab quvvatlashga yordam beradi. Bozor iqtisodiyotining murakkab jarayonini o'z boshidan kechirayotgan matbuot faoliyatiga birmuncha yengillik baxsh etadi.

Malumki, hech bir soha rivojini malakali va yetuk mutaxassisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Matbuot, jurnalistika ham bunday istisno emas. Kadrlar malakasini oshirish bugungi kunning emas, balki ertangi kun talabiga javob beradigan jurnalistlar tayyorlash oldimizda turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi. Tashkil qiladigan fond mablag'laribu sohaga ham yo'naltirilishi, ijodkorlarimiz nafaqat mamlakatimizda, balki, xorijdagi e'tiborli axborot markazlari, agentlik malaka oshirishlari, xorijlik hamkasblar bilan tajriba almashishlari, jahondagi nufuzli jurnalist tashkilotlar bilan aloqalarni yo'lga qo'yish mamlakatimiz OAV taraqqiyoti, uning jahon miqyosida o'z nufuziga ega bo'lishiga xizmat qiladi. Bu borada keyingi yillarda kitoblar, ko'plab ilmiy maqolalar chop etilmoqda. Jurnalistikaning rivojiga "O'zbekiston matbuoti" jurnali katta hissa qo'shdi. Lekin bular jurnalistika nazariyasi bo'yicha, uning barcha qirralarini kengroq yoritishdek qamrovli vazifani bajaradi, degan so'z emas. Bu sohadagi mazkur bo'shliqni to'ldirish lozim. Shu o'rinda kamchiliklardan xoli bo'lmagan, lekin dastlabki qadam sifatida mamnuniyat bilan etirof etishimiz lozim bo'lgan darslik tug'ilgani maqtovga loyiq. O'zbekiston mustaqillikga erishganligidan so'ng, alohida etibor qaratilgan sohalardan biri ma'naviyatdir. Zero ma'naviy hayot moddiy hayotdan kam bo'lmasligi kerak. Ma'naviyatni yuksaltiruvchi vositalardan biri matbuotdir. Uning ravnaqi yurtimiz istiqboliga xizmat qiladi.

Jurnalistlar o'z mehnatini yuzaga chiqarishda jurnalistika janrlarining o'rni beqiyos. Chunki biror bir yangilikdan ommani xabardor qilishda axboriy janrlardan foydalaniladi. Ko'pincha jamiyat hayotida yuz berayotgan voqea hodisalarni xabar, reportaj, suhbat, hisobot shaklida beriladi. Tahliliy janrlarda

barcha uchun dolzarb hamda muammoli mavzular yoritiladi. Unda har bir sohadagi yutuqlar va kamchiliklar kuzatilib boriladi va tahlil qilinadi. Badiiy publitsistik janr o'zining voqea hodisalarni badiiy ta'sirchanlik va keng mushohada bilan yoritganligi sababli boshqa janrlardan ajralib turadi.

IV. Jurnalistika janrlari

JANR deganda ommaviy axborot vositalarimatnlarning umumlashtirilgan vatipiklashti rilgan voqelikni aks ettirishning badiiy va publitsistik shaklini tushunamiz. Bu tushuncha voqelikni bilish usullari, uning aks etishi va ijtimoiy amaliyotga ta'sir o'tkazishiga ko'ra farqlanuvchi asarlar mazmun va shaklining umumiy xususiyatlar yig'indisini anglatadi. Janrlar haqida gapirishdan oldin ularni qanday farqlashni bilib olishimiz lozim. Jurnalistikaning har bir janri o'zining vazifasi, ko'rinishi va yozilish uslubiga ega desak xato bo'lmaydi. Hozirgacha publitsistik janrlarni guruhlashtirishda turli yondashuvlar mavjud. Bu holat jurnalistikada mazmun va shakl uyg'unligini taminlovchi yangi janrning paydo bo'lishi, eskilarning amaliyotdan mantiqiy ravishda chiqib ketishini taqozo etadi. MDH jurnalistikasida publitsistik janrlar uchta asosiy guruhga –**axborot, tahliliy, badiiy publitsistik vasharx kabi guruhlarga ajraladi**. G'arb jurnalistikasida esa, asosan, materiallar **yangiliklar va ocherklar** tarzida uzatiladi.

Maqola –jurnalistikaning publitsisti, unda ijtimoiy hayot hodisalari chuqur tahlil qilinadi. Maqola gazeta va jurnalning eng keng tarqalgan janri bo'lib, u hayotimizning dolzarb bir masalasiga bag'ishlangan publitsistikadir.

Maqola uchun asosiy umumlashma va xulosani ustalik bilan adabiy tarzda ifodalash juda muhim. Boshqacha qilib aytganda, maqola katta qamrovi keng tadqiqoti, korrespondensiya janri unga nisbatan qamrovi kichikroqdir. Ammo ularning ikkalasi ham ko'pgina bir xillikga va sifatga ega.

Maqolada, eng avvalo umumiy g'oya ifoda etiladi. Keyin uning ayrim qoidalar nazariy asoslanadi.Imkoniyat darajasida ular hayotiy faktlar va misollar bilan to'ldirilishi lozim.Fakt va misollar tushunarli,ahamiyatli va tekshirilganbo'lishi talab qilinadi.Maqolaning yozilish uslubi cheklanmagan, u ocherk uslubidami,suhbat uslubidamiyoki lavha uslubidami baribir u o'qishli, ko'pchilikga maqul bo'lishi kerak.Maqolaning ahamiyati –bu gazeta bo'ladimi yoki jurnal juda katta.Maqolaning turlari ham bir nechta .Jumladan, bosh maqola, nazariy maqola, targ'ibot maqola,tanqidiy maqola va boshqalar.

Maqola- voqeligimizdagi muhim bir masalaga bag'ishlangan tadqiqot bo'lgani, ijtimoiy hayot faktlarini umumlashtirib hamda ilmiy chuqur tahlil qilib yoritishi bilan boshqa publitsistik janrlardan farq qiladi.Maqolada ham publitsistik janrlarning boshqa xillariga qo'yilgan talablar qo'yiladi.Jumladan oddiy xalq tushunadigan adabiy tilda,ravon yozilishi kerak.Agar sayoz,zerikarli yozilsa, unda shevaga katta etibor berilsa ko'tarilgan mavzu ijtimoiy ahamiyat kasb etmasa maqolani ahamiyati ham kam bo'ladi.

Bosh maqola-(yoki tahririyat tomonidanyoziladigan maqolada)davlat hokimiyati va hujjatlari qatoriga sharhlabhamda davrning dolzarb bahonalarimasalalari yoritiladi.

Bunday maqolalar aniq manzil,ki mlarga murojaat qilinayotgani,bajarilishi kerak bo'lgan aniq rejalar va ularning ma'sullari ko'rsatishi lozim. Bosh maqolaning uch xili bor. Umum siyosiy,targ'ibot va tezkor maqolalar.Umumsiyosiy maqolalar aksariyat holda birinchi sahifada beriladi.Boshqa sahifada berilgan taqdirda ham u o'z ahamiyatini yoqotmaydi.Chunki bunday maqola tahririyat tomonidan beriladi.Nazariy va targ'ibot maqolalaridanyuqori g'oyaviylik,ilmiy tahlil,ijodiy yondashuv talab qilinadi.Bunday maqolaning kuchi ishontirish darajasiga bog'liq bo'ladi.Muallif Nazira Abduazizova O'zbekiston milliy ensiklopediyasidagi maqolasida yozilishicha,muammoni maqolalar ko'p hollarda manzara va

bahslashuv xarakteriga ega bo'ladi.Unda bir necha xil fikr o'rta tashlanadi.Muhokamalardan so'ng tahririyatning yakuniy xulosasi bildiriladi.

Nazariy va targ'ibot maqolalarining asosiy vazifasi mustaqillikni,milliy g'oya istiqlol mafkurasining asoslari va prinsiplarini,ilmiy maqolaning vazifasi esa fan, madaniyat, texnikayutuqlarini tushuntirish,ommalashtirishdan iborat.Maqolaning turidan qat'iy nazar u oddiy tilda keng ommaga tushunarli qilib yozilishi va dolzarb mavzuga bag'ishlangan bo'lishi ham juda muhim. O'zbekistonda maqola janri tarixini Furqat , Ibrat, Hakimxon kabi jurnalistlarning

“Turkiston viloyatining gazetisi”da bosilgan maqolalari bilan bog'lash o'rinli bo'ladi.Keyinchalik jadid matbuotida faol qatnashgan Hamza, Abdulla Avloniy,

Abdulla Qodiriy va boshqa jurnalistlaroz maqolalari bilan bu janrning rivojiga hissa qo'shishgan.

TILLAQOSH

Yurtimizda zargarlik san'ati qadimdan rivojlanib,bugungi kunga qadar tobora sayqallanib, kelmoqda.O'zbek ayollarining taqinchoqlari milliy urf-odat va qadryatlarimizga xos naqshlari,murakkab dekorativ jimjimadorligi,xalq amaliy san'atining bardavom turfa uslublarini tarannum etishi bilan ajralib turadi.O'rta asrlarda boshlab urfga kirib,hozirgacha o'zining qiyofasinisaqlab kelayotgan tillaqosh ham milliy taqinchoqlar sirasiga kiradi.U ro'mol ustida peshonaga taqiladigan taqinchoq bo'lib, oltin,kumush yoki tilla suvi yuritilgan bronza kabi metallardan yasaladi. (maqola)¹

Korrespondensiya (lotincha so'z bo'lib “javob beraman bildiraman” degan ma`nolarni anglatadi).

Gazeta publitsistikasining asosiy qadimgi asosiy va tezkor janrlaridan biri.Jurnalist olimlarning ifodalashicha,uning vazifasi “chimdini hayotni” ko'rsatish, maqsadi esa bo'lgan voqeani yoki voqealarni tahlil qilishdan iborat.Korrespondensiya publististika janrlari orasida muhim o'rinlardan birini egallaydi.Unda aniq ijtimoiy

¹Turkiston 23.8.

jarayon ifodalanadi. Axboriy maqolalardan farqli o'laroq, u tahlil qilish xususiyatiga ham ega. Muallif korrespondensiyada faktlarni shundaygina sanab o'tmasdan voqea yoki hodisani to'la ifodalaydi, baholaydi, izohlaydi.

Agar maqola tadqiqot yakunini ifoda etsa, korrespondensiya tadqiqot jarayonini ko'rsatadi, tadqiqot uslubini ochib beradi. Korrespondensiyada fakt mazmuniy o'rinni egallaydi, mazmunning asosini belgilaydi. Faktlar ham oddiy faktlar bo'lib qolmasdan, bir necha marta tekshirilgan, to'la, aniq hamda obyektiv bo'lmog'i shart. Korrespondensiya gazetxonlarga fikr uyg'otishga hayotning mavjud muammolarini his qilishlari-yu, anglashlariga va unga har qanday og'ir vaziyatda yechim topa olishlariga yordam beradi. Korrespondensiyaning janr xususiyatlari ana shunday. Bu janrda ijod qilayotgan muallif uchun ko'pgina imkoniyatlar mavjud. Jumladan, korrespondensiyada jonli suhbatdan, adabiy uslubdan taqqoslash, kinoyadan foydalanishi, uni maqol, metal va ibratlar bilan boyitishi mumkin.

Maqola bilan korrespondensiya o'rtasidagi eng muhim farqni qisqagina tushuntiradigan bo'lsak, unda shunday deyish mumkin: Muallif umumiydan xususiyga, korrespondensiya esa xususiydan umumiylikga qarab ketadi.

Korrespondensiyada muallif voqeani sodir bo'lgan joyiga bormay, mavzuga oid masalalarni chuqur o'rganmay yozishi mumkin emas. Demak, korrespondensiya tezkorlikni, aniq mavzu, aniq manzil, aniq ma'lumotlarni taqozo qiladi. Korrespondensiyada ko'p hollarda faqatgina voqea tasvirlanmay, balki uning mohiyati ham ochib beriladi. Undagi asosiy mazmun, muallif fikri dunyoqarashi to'laqonli ochib beriladi. Shunday qilingandagina u o'z vazifasini o'tagan bo'ladi.

Talab doirasidagi korrespondensiyaning yozish uchun voqeaning o'zini bilish yetarli emas.

Uni turlicha ta'riflash mumkin. Shu boisdan voqea chuqur tahlil etilib muallif o'z xulosasining to'g'riligiga amin bo'lgach, uni mutolaga berishi kerak. Har bir korrespondensiyada bitta eng muhim masala ko'rilishi lozim. Har bir

korrespondensiyaga ijtimoiy-siyosiy chiqish deb qaralishi kerak. Ko'pincha yozilish jihatdan ocherkga, hatto satira elementlari bo'lgan jiddiy tusdagi izchil lavhaga o'xshab ketadi. Korrespondensiyani ijodiy yoki tanqidiy tezkor deb bo'lishga hojat yo'q. Chunki tezkorlik hech qanday mustasnosiz har bir korrespondensiya uchun majburiy talabdir.

Korrespondensiya ma'lum davr va o'rindagi aniq ijtimoiy jarayonga qarab olinishi inobatga olinib, uni axborot hamda tahliliy korrespondensiyalarga bo'lish mumkin.

“Axborot korrespondensiyasida, odatda, muallif shaxsan o'zi ko'rgan yangiliklarni yoritadi. Xabarlarni dalillar asosida tahlil etadi, umumlashtiradi, xulosalar chiqaradi. Tahliliy korrespondensiyada ijtimoiy –siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan dalillar demokratik nuqtai-nazardan tahlil etilib, amaliy xulosalar chiqariladi”.²

Korrespondensiyani yozishdan oldin, albatta reja tuzib olgan maqul. Uning tiliga etibor qaratish juda muhim. Unda maqol, matallardan foydalanish, lirik chekinishlar qilish, chiroyli yakun topish korrespondensiyani boyitadi va bu korrespondensiya o'quvchi yodida uzoq saqlanadi.

Hech qachon tanqidiy korrespondensiyada shaxs va jamiyatga haqoratli so'zlar ishlatish mumkin emas. Aksincha mavjud xatolarni tez tuzatish, kamchiliklarni nimalar qilish zarurligiga e'tibor qaratish muhim. Korrespondensiyaning muvaffaqiyati uning, ishonarni, aniq ravon yozilishi va gazetxon uchun tushunarli bo'lishidir.

Ba'zan ayrim korrespondensiyalarda jurnalistning bevosita ishtiroki bor, ammo unda dalillar yetarli bo'lmasligi, yoki bo'lmasam dalillar yetarli bo'lsada jurnalist voqea joyida ishtirok etmaganini ko'rishimiz mumkin. Bu kabi xatoliklarning qo'llanishi korrespondensiyaning sifati va saviyasini tushirishga olib keladi

²Qudrat .B. Professional mahorat sari to'rt qadam. T:2002. 10.

Ochiq xat –o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan publitsistik janrlardan yana biri ochiq xat bo'lib, keyingi paytlarda u oz bo'lsa-da, gazeta va jurnal sahifalarida ko'rinishga boshladi.

Publitsistikaning gap birinchi shaxs nomidan olib boriladi va javob kutiladigan yakka shaxsga yoki bir guruh odamlarga to'g'ridan to'g'ri murojaat qiladi. Bu janrning asosiy vazifasi ijtimoiy ahamiyatga molik mavjud kamchiliklar yoki xatolar bo'yicha keng o'quvchilar e'tiborini shu muammoga qaratish va uni tezlik bilan tuzatish bo'yicha tadbirlar belgilashni ko'rsatishdan iboratdir.

Ochiq xat muallifi ko'rsatilgan masalani yoritishda badiiy usuldan foydalanishi, hikoyani jo'shqinlik bilan ifodalashi, o'z dunyoqarashini bildirishi mumkin. Ochiq xatda his-hayajon, ichki kechinmalar oddiylik va samimiylik bilan ifoda etiladi. Bu janrning tili esa ta'sirli, e'tirosli, namunalidir, munozarali bo'ladi.

Shu o'rinda „O'zbekiston matbuoti“ jurnalida „Kasbimiz odobi“ rukni ostida 2003-yil ochiq xatni ajoyib misol sifatida to'laligicha beramiz.

-Jurnalist ta'magirlikda ayblansa kim gunohkor ?

-Tuhmatga uchrasa –chi?

-Hibsga olinsa –chi?

Nima uchun bunday savollar tug'ilmoqda.

Tashvishlarimiz o'rinishimi?...

Og'ir va achchiq savollar jurnalist kasblarimizni mulohazaga fikr almashinuviga undaydi.

Tojiddin aka 2002-yilning 23-oktabr kuni „Hurriyat“ gazetasida bosilgan „Izlagan...“ nomli maqolangizni o'qiganimdan buyon Sizni tashvishlantirgan o'sha mavzuhaqida qayta-qayta o'ylayman. Hatto, ko'ngildan kechgan mulohazalarni qog'ozga tushirdim ham, lekin yana istiholaga, andishaga bordim. „Ke, qo'y, dunyoda shuncha muammo-yu masala qalshib yotgan bir

paytda o'z hamkasblarimizning sha'niga og'ir botadigan " uydagi gapni ko'chaga olib chiqish zarurmi" degan o'yga bordim. Axir ta'ma-yu nafs komiga "g'arq bo'lib" emin erkin yashashni kasb qilib olganlar ozmi?! Ularning hech biri boshqasini qulog'idan cho'zib, xalqning ko'z o'ngida sazoyi qilayotgan bo'lmasa! Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi degan gaplar bor.

Shunga o'xshash o'ylar bilan yozganimni javonga tashlab qo'ydim, illo maqolangizdagi quydagi so'zlarni sira unitolmadim. „Zamonasozlik ” to'rtinchi hokimiyat' namoyondalari faoliyati ham kuzatilmoqda-bazi uddaron muxbirlar ma'sul insonlardan pora undirishga harakat qilmoqdalarva tuzoqqa tushmoqdalar”.

Tojiddin aka! Tog'risi, yilingiz juda achchiqda! Qadimda hali sizni tanimagan kezlrim o'larda qahri qattiq odam bo'lsa kerak deb o'ylagandim. Keyin tanishdim –u, mutlaqo fikrimdan qaytdim. Surxondaryoning oftobida yetilgan qalampir sho'rvaga "uvitib" qo'ygan "shirindan shakar lutf" laringiz zamirida haqiqat, haq gap bo'lishini ko'rib, sirtimdagi noroziligimga botindagi rozilik qorishib ketadigan bo'ldi. Mazkur maqolada ham o'zingizga xos uslub saqlangan. (Uni sira ham unitolmaganimning boyisi ham shundadir.) Xullas, maqolaning boshlanishidayoq hamkasblarimizning shani, izzat-obro'si, oriyat haqida qayg'urish, tashvishlanish borligi sezilib turibdi. Shunday ekan, hamon shu illat mavjud ekan hatto u gazak olib boshlagan ekan. Nima uchun biz kasalni ko'ra bila turib damni ichimizga yutishimiz kerak?! Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimasa... axir biz qarg'a emas-ku, Tojiddin akan, Kim va qaysi kasb egalari o'zlarini qarg'a o'rniga qo'ysa o'zlariga havola. Lekin biz bu yorug' dunyoga ahli qalam bo'lib kelgan, ijod kishisi bo'lib kelgan bandalar o'zimizni qarg'aga tenglashtirmaylik. Boshqalar sanchadigan tanqid tig'imizni o'zimizga ham suqib ko'raylik. Nima dedingiz, Tojiddin aka?!

Salom bilan Xurshid Do'smuhammad

Axborot –bu soʻzning oʻzagi ‘xabar ‘, ‘darak’ kabi maʼnolarni bildirib biror bir mavzu yuzasidan informatsiya berish kabi maʼnolarda qoʻllaniladi. Matbuotning keng va qadimdan ishlatib kelinayotgan janri. Uning maqsadi kimningdir faoliyati,qaysidir voqea hodisa haqida tushintirish, bayon qilish tanishtirishdan iborat. Axborot ikki –xalqaro va mahalliy axborotga boʻlinadi. Bu janrga publitsistikaning lavha, suhbat , hisobot, xronika kabi xillari kiradi.

Hozirgi zamon voqea hodisalarga boy. Jurnalistning mahorati shundaki,u bulardan siyosiy va ijtimoiy ahamiyatga ega boʻlgan eng qiziqarlilarini topib, matbuotda yoritishi,radio va televideniyada bera olishi kerak. Axborot soʻzi aksariyat holda qulogʻimizga yangilik deyilayotgandek eshitiladi.Shundayligi toʻgʻri, chunki axborot haqiqatdan ham yangilik yetkazadi. Uning taʼsirchanligi esa uning tezkorligini oshiradi.Oʻz vaqtida yetkazilgan axborotning oʻrni juda katta, buni har birimiz juda yaxshi bilamiz. Axir, axborotning asosiy vazifasi kundalik

“Hurriyat” da bosh muharrir edim.Xonamga bir onaxon kirib keldilar. Yoshlari oltmishdan oshgan, jikkakina,engil boshlar xiyla o’rilgan. Qoramag’iz. Onaxonning kaftlariga, taram-taram yorilgan og’ir mehnat asoratidan zarang tayoqchalariga o’xshab ketgan g’adir-budur barmoqlariga zimdan ko’z tashladim.Salomlashdik.Shikasta tovush.Bilinib turibdi-shikoyat ko’tarib kelgan.

-Qayerda ishlaysiz, ona? Kasbingiz?

-Dalachimisiz uka...Ketmonchimisiz ...Bormagan yerim qolmadi.Izlay –izlay topib keldim.Boshimga og’ir musibat tushdi uka...

Xullas onaxonning yolg’iz og’li ikkinchi guruh nogironi.Yog’-moy zavodida qorovul bo’lib ishlagan.Tunda pichoq bilan qurollangan og’ri bilan olishib,o’zimni himoya qilish chog’ida g’isht parchasi bilan urib behosdan o’ldirib qo’ygan.Hodisa soqchilik postida sodir bo’lgan.Sud og’lini 14 yilga ozodlikdan mahrum qilgan.

-Kelinim bir etak bolalari bilan chirqirab qoldi.O’g’limning Avg’ondan nogiron bo’lib qaytganini ham inobatga olishmadi...

Bunday holatlarda ko’z oldingizda olam zimistonga aylanib ketadi. Qani, epini topsangiz –u,hoziroq onaxonga uni ko’zlari to’rt bo’lib kutib o’tirgan to’rt nevarasi, kelini,14 yil hisobidan kun va soat sanay boshlagan nogiron og’liga yordam qo’lini cho’zsangiz.

-Yig’lamang onajon. Sabr qilib turning.Arizangizni sud hujjatlarini qoldiring.Biz yuristga topshiramiz,u hujjatlarni obdon o’rgansin,qonunga binoan qo’limizdasan kelgan yordamni ayamaymiz.Onaxon berayotgan vadalarimga ishonibishonqiramay, nigohlari goh charaqlab,goh nursizlanib duo qildilar.

Xayrlashdik.Chekka qishloqning oddiydan - oddiy bir qishloq ayolining boshiga tushgan musibat yuki endi bizga ko’chadi,ogir va istrobli o’ylar iskanjasidan qutulolmay, qo’l ishga bormay o’tirasiz. Voqelikning yanayam ayanchli davomi

keyin yuz beradi. Onaxon xayrlashib chiqib ketgach, biror soatlar o'tdimi yo'qmi xonadan chiqsam Onaxon yo'lakdagi kursida jovdirab o'tiribdi.

-Ha ona, yana kimni kutyapsiz?-so'radim hayron bo'lib-boravering biz o'rganamiz.

-gazeta yuritilishi bilan uchrashay degandim, uning ham yumushi boshidan oshib yotgan chiqar. So'ng ...-Onaxon chaynaldilar. Tushunolmadim.

Shunda xodimlardan biri jonimga oro kirdi.

-Onaxon gazeta xodimlarini bir tushlik qildiray, rahbaringizga aytarga botinolmayman-deb kutib o'tiribman. Bu gapdan shikoyatni eshitgan chog'imdagi iztiroblarholva bo'lib qoldi, boshimdan bir chelak qaynoq suv ag'darilgandek bo'ldi. Achchiq ustida onaxonga nordonroq gap ham aytib yubordim.

Tojiddin aka, bu qanaqaaxir?! Buni qanday tushinish kerak?! Qanday talqin qilish mumkin?! Yoshi bir joyga borib qolgan ketmonchi kampir to'rt yetimcha nevarasining rizqini qirqib GAZETA TAHRIRIYATIGA tahririyat a'zolarini tushlik qildirish niyatida bir hovuch pul ko'tarib kelibdi! Eng dahshati bunday tasavvur qanday paydo bo'ldi kampirda?!

Savolning eng dahshatli joyi ham shunda, yani oddiy kishilarda gazeta tahririyatini, jurnalistni manfaatdorlik qilish fikri qayerdan keldi. Inson felidagi hech bir illat to'satdan paydo bo'lmaydi. Bizni tashvishlantirayotganbu kasofat vujudga kelishi uchun, avvalo, muhit paydo bo'ladi, kurtak otadi, g'unchalaydiva qarabsizki''manfaatparastlik '' degan yozuv qanot qoqib boshimiz uzra emin-erkin uchib yurganini, u sizning aql hushingizga changal yozayotganini sezmay qolasiz. Unga uzil kesil barham berish keraligini, uni gazak otishiga yo'l qo'yish koni ofat ekanligini yaxshi tushunamiz-u, indamaymiz. Ko'rib-ko'rmaganlikka, bilib-bilmaganlikka olamiz. O'g'li o'lasa qilib kaltaklangan, besh operatsiyaning so'nggida joni omon qolgach otasi-mo'ysafid odam jinoyatchilar astoyidil qidirmayotganidan arz qilib, bir tugun pul ko'tarib kelibdi.'' Ha bu nimaga deb

so'rasangiz, "Redaksiya o'zi og'ir ahvolda, "yordam bo'lar" degan javobni eshitasiz. Tajribali jurnalist tuhmatga uchrab qamaldi. Amnistiya sharofati bilan muddatidan ancha ilgari ozodlikka chiqdi. Boshidan kechirgan alam iztiroblarni qog'ozga tushirib, o'zi ishlagan gazetaga olib keldi. Maqolani bosish uchun abgor bo'lgan sobiq hamkasbdan falon so'm so'rashibdi!...

Allaqaysi qishloqda ikki guruh o'rtasida nizo avjiga chiqadi. Har ikkala guruh elchilari ikki gazeta "desant" tanlaydi.

Qarabsizki, bir gazetada u guruhning ikkinchi gazetada bu guruhning changi qoqiladi. Gazetxon qaysi maqolaga ishonishini bilmay garang. Qishloqda endi qirpichoq boshlanadi. Jurnalist esa ... yana desant kutadi...

Ko'ndalang qo'yilayotgan ushbu savollar kimgadir og'ir botishi muqarar. Meni mubolag'aga zo'r berganlikda ayblab, butun o'zbek matbuoti yoki barcha jurnalist zoti shu ahvolga dushib qolmagandir, deb ta'na qilishlari ham mumkin. Men aynan shu ta'mani qabul qilaman, zero, bir qalamkash matbuotchi sifatida ta'magirlik u qadar ildiz olib ketmaganida, o'ramizda jurnalistikaning halol noniga qanoat qilib yurgan ko'pchilikni tashkil etishiga shukrona keltiramiz. Biroq yuqorida bayon etilgani kabi voqea-hodisalar dam u yerda bu yerdan quloqqa chalinaversa, ayrim kasblarimiz ta'magirliги uchun jazo muddatida kim tashvishlanmog'i kerak.

Nufuzli xorijiy tashkilot vakillari Toshkentga kelib, OAVni demokratiyalashtirish va qo'llab quvvatlash jamg'armasiga tashrif buyurishdi, ozodlikdan mahrum etilgan va ja'zo muddatini o'tayotgan jurnalistlar haq-huquqi hech qanday muhofaza ostiga olinmagan, ular haqlarida hech kim hatto qayg'urmayapdi, degan mazmunda o'z noroziligini bildirishadi. Bizning jamg'arma bu borada jim o'tirmayotgani haqida so'zlab berdik. Ularning ro'yxatidan „mukammalroq“ ro'yxatimiz borligini aytdik. Birinchi da'vo chippakga chiqgach, ular navbatdaxisiga o'tishdi. Yani, ro'yxatdagi jurnalistlar izidagi matbuotdagi tanqidiy chiqishlari uchun ta'qib uyushtirib, so'ng ular poraxo'rlikda ayblanib qamalgan emish. Biz bu da'voni ham rad etdik, yani jurnalistlarning ta'qib etilgani haqida bizda hech qanday hujjat yo'q,

ammo lekin ularning ta'magirlik poraxo'rlik ustida qo'lga olingani rasmiylashtirildi.

Bunday ma'lumotlarning hozir men keltirgan misollarga qanday dahli bor, dersiz?Nega bo'lmas ekan?!

Ularning ham, bularning hamzamidida bir narsa – "jurnalist poraxo'r " degan tavqi lanat yotbdi-ku!Matbuot ahliga nisbatan xunuk munosabat shakllanayapdi-ku! Yana takrorlayman: bu mavzuda gap qo'zg'ash nihoyatda og'ir, hatto eng qaltis kasb egalari ham o'z kasbdoshlar ustidan zinhor bunday hukm chiqarmaydilar.Men ham hukm chiqarayotganim yo'q, balki jamiyatning eng jonkuyar,fidoiy kasb sohiblarining shaniga gard,beg'ubor qoldirmaslik istagi qo'lga qalam olishga undamoqda. Jurnalistning ta'masi ot bilan tuya bo'larmidi,deyishadi.Jurnalist mehnatining og'irligidan uning moliyaviy nochorligidan vaj ko'rsatishadi.

voqeani o'zvaqtida rost qilib yozishdan iborat-ku .Hayot qanchalik sermazmun va rang-barang ekanaxborot materiallari mazmuni,uning mavzusini hayotning o'zidan axtarish kerak.³

Axborot qanday ma'suliyat yuklagan? Eng avvalo hozirjavoblik va tezkorlik. Hozirjavoblik deganda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan eng qiziqarli voqea va hodisalarni topish va ularni tezkorlik bilan yoritish tushiniladi.Unda "bugun" yoki "kecha " degan so'z berilsa axborotning qimmati yanada ortadi. Demak axborot yozuvchi jurnalistga bugun bo'lgan voqea hodisani bugunoq bera olishdek ma'sulyatni yuklaydi.Bunga Toshkent oqshomi gazetalari jurnalistlarini misol qilib ko'rsatish mumkin.Ko'pincha gazetaning birinchi sahifasida "bugun" deb nomlangan axborotni uchratamiz.

Axborot hammabop va tushunarli bo'lishi lozim.Ular mazmun mohiyati, nima demoqchiligi,jamiyatning qaysi sohasiga oid ma'lumot berishiga qarab bir necha

³M .Xudoyqulov.Jurnalistikaga kirish.T:2005. 34.

xillarga bo'linadi. Ulardan keng tarqalganlari-xronika qisqa va keng tarqalgan axborot, lavha,suhbat, hisobot,repertaj va boshqalardir.

Xronika bir necha satrdan iborat bo'lib,unda sarlavxa ham bo'lmaydi.Sodir bo'lgan voqea yoki hodisa tavsilotsiz aytiladi. Ko'p hollarda xronika xillari "Daladan daraklar" "qisqa satrlarda" kabi mahsus ruknlarda beriladi.Qisqa axborotlar bu ham axborot turi kabi maxsus ruknlarda beriladi. Qisqa axborotlar, bu ham axborot turi, 10-30 satrdan iborat bo'lib, gazetalarda ko'p ishlatiladi.U o'z sarlavhasiga ega bo'lib,bitta voqea ifoda etilgan ikki-uch faktdan iborat bo'ladi.Bazilarda xronikadan farqli o'laroq,voqea tafsiloti ham beriladi.Kengaytirilgan axborot esa 40-100 satrdan iborat.

Axborot ma'no mazmuniga suhbat shaklida berilishi ham mumkin.Suhbat turida axborotning axborotning boshqa turidan farq qiluvchi narsa shundan iboratki,bunda voqea haqidagi hikoya intervyu berayotgan kishi nomidan beriladi.Jurnalist suhbat chog'ida yozib olgan javoblarni adabiy jihatdan ishlab nashrga tayyorlaydi. Suhbatga oldindan tayyorlanish va uning rejasini tuzib chiqish muhim ahamiyatga ega .

Suhbatlar matbuotda turli maqsadlarni ko'zlagan holda yoritiladi. Jumladan,ishlab chiqarish yoki boshqa masalaga oid navbatdagi vazifalarga olimlar,o'quvchilar, san'at xodimlari,ishlab chiqarish ilg'orlari, sport ustalarining ijodiy muvaffaqiyatlari,kutilayotgan yoki,bo'lib o'tgan yirik voqealar gazetxonga, tinglovchiga yoki tomoshabinga ma'lum bo'lgan biron bir voqea borasida kengroq tushintirish berish, qaysidir masalada davlat,jamoat rahbarlarining fikrini bilish haqida suhbatlar uyushtiriladi.

Suhbatlar,hatto tahririyat savollariga javob tariqasida tayyorlanishi ham mumkin.Axborotning eng keng tarqalgan shakli hisobotdir. Hisobotda ko'pincha ijtimoiy siyosiy ahamiyatga molik yirik tadbirlar (Oliy Majlis sessiyalari, jamoat tashkilotlarining qurultoy va konferensiyalari,miting yirik qurilish inshootlari,sport anjumanlari, sud jarayonlari)haqida yoziladi.Jurnalist tahririyat topshirig'ini

bajararkan, hisobotda nimalarni ko'rgani va eshitgani haqida xabar beradi. Sessiya qurultoy, majlis haqida yozilayotgan hisobotda muzokaralarga chiqqanlar haqida to'xtamay, hamma holda vaqt ham o'zini oqlaydi, deb bo'lmaydi.

Suhbat va intervyu bir biriga o'xshash janr bo'lsada, ammo ularni quydagi farqlar orqali bilib olishimiz mumkin. Intervyuda suhbatdosh o'rganiladi va qaysi soha egasi bo'lsa, o'sha sohaga oid turli savollar beriladi. Suhbatda esa mavzu o'rganilib, o'sha mavzuga oid savollarga javob topish maqsadida suhbatdosh tanlanadi.

Lavha- jurnalist bitta tashkilot yoki bo'lim, jamoa xo'jaligi yoki o'quv yurti va h.k haqida qisqa, ammo jonli va ta'sirli qilib, o'z taasurotlarini hikoya qiladi. U faktlarni umumlashtiribgina qolmay (faktlar lavha uchun asos rolini o'ynaydi.) Balki kuzatganlarini to'la ochib berish maqsadida vaziyatni yoritadi. Tabiiyki, lavha uchun obyekt oldindan aniqlanadi.

Lavha axborotning qiziqarli janrlaridan biri hisoblanadi. Hisobotlar hajmi yoritilayotgan mavzuga qarab har xil bo'ladi. Hisobot turi ham har xil. Umumiy (to'g'ridan, to'g'ri) hisobotlar, mavzuviy hisobotlar "munosabat bilan" kabi hisobotlar mavjud. Umumiy hisobotda jurnalist u yoki bu voqea haqida yozilgan faktlarni ketma ket tartibda ishlatadi. (Masalan qaysidir anjumanda birinchi bo'lib kimdir ma'ruza qilib chiqadi. Yakunlovchi ma'ruzada yakunlovchi so'zga chiqqan ma'ruzachi unday deydi, bunday deydiva yig'ilishda qaror qabul qiladi.

Bunday hisobotda muallif hech nimani sharhlamaydi. Agar hisobot ko'rgazmadan yozilayotgan bo'lsa, unda muallif har bir ko'rgazmada lavha yoki boshqa janrda material yozilmasin, jurnalistning kuzatuvchilik qobiliyati sezilishi kerak. Lavhani ham, ba'zi boshqa janrlar singari, qisqa va lo'nda yozish talab qilinadi, material hajmi lavha janri uchun xarakterli xususiyatga ega emas. Lavha gazeta janri sifatida reportaj bilan ocherkga yaqin turadi. Lavhada ham xuddi reportaj yoki ocherkdagidek to'qima emas balki haqiqiy voqelik, to'qima emas balki aniq kishilar haqida gap boradi. Lavhaning reportaj yoki ocherk bilan yaqinligini shuguni

ifodalaydi. Lavha voqea hodislarni yoritish jihatdan reportajga o'xshasa o'zining adabiy badiiy ifodaetish uslubi bilan ocherkga yondoshdir.

Ocherkda bo'lganidek lavhada hamhodisa, voqealar markazida odam turadi. U asosiy ijrochi shaxs. Afsuski, bazi lavha mualliflari bu talabdan chetga chiqadilar. Bunday mualliflar o'z materiallarini raqamlar, foizlar bilan to'ldirib odamlarning harakatlarni jonli suratda ifodalash, intilishlari, qayg'urishlarni ifoda qilish o'rniga, ism sharifini sanab o'tish bilan kifoyalanishadi.

Lavhada mavzuni to'g'ri tanlay bilish muhim ahamiyatga ega. Ammo buning o'zi yetarli emas. Mavzuni ochib berish va uning eng muhim tomonini aniqlab olish, adabiy tomondan tahrir qilish kerak. Ba'zi mualliflar ko'rgan eshitgan narsalari haqida batafsil yozishadi. Natijada, lavha keraksiz mavzuga taaluqli bo'lmagan faktlar bilan to'lib toshadi.

Lavhaning yana bir muhim vazifasi hayotni borligicha ko'rsatishdan iborat, chunki hayotda insonlar yaxshi yomon xislatga ega bo'lishadi. Muallif o'sha odamdagi mavjud yutuq va kamchiliklarni ham, albatta ko'rsatishi kerak. Lavha ana shunda gazetxonlarning sevib qolgan jangovor janriga aylanadi.

Intervyu. Bu konkret shaxs (shaxslar guruhi)ning ommani qiziqtiradigan jurnalist savollarida javobidir. Takidlaymanki, intervyu faqat janr emas, balki muhbirona ocherk va materiallar uchun axborot olish usulidir. (Valentin Voroshilov).⁴

Intervyuning dastlabki ko'rinishlari ancha qadimga borib tarqaladi.

Ilk epik asarlardan biri "Qutadg'u bilig'" asosan to'rt qahramonning turli mazmundagi savol-javobi asosida qurilgan mumtoz adabiyotda alohida "munozara" yoki "savol javob" deb ataluvchi janr mavud.

"Dedi: qaydinsen, ey majnuni gumroh?"

Dedi: majnun vatandin qayda ogoh.

⁴Halim. S. Nargiza. T. Repartiyorlik mahorati. T: G'ofur G'ulom. 2010. 74.

Dedi: nedur sanga olamda pesha?

Dedi:ishq ichra majnunliq hamesha.

Dedi:bu ishdan bo'lmas kasb ro'zi,

Dedi : kasb o'lsa basdur ishq so'zi''

(Alisher Navoiy''Farhod va Shirin)

Jurnalistlar orasida intervyuni ''sinxron'' deb atashadi.Intervyuning quydagi turlari mavjud.

Ko'rgan kishi bilan intervyu-falokat,kasofat yoki jinoyat kabi voqea-hodisalarni ko'rgan,bilgan kishi bilan suhbat.

-Nima bo'lganligini so'zlab bersangiz?

-Nimalarni o'zingiz ko'rdingiz?

-Nimalarni o'zingiz ko'rdingiz?

-Hozirda tuyg'ularingiz qanaqa?⁵

''Qarama qarshi''intervyu.

-Siz qarz vasiqalaridan nima uchun shaxsiy manfaatingiz yo'lida foydalandingiz?

-Tungi klub sizga yoqqandir-a?

-Sizni xotinboz deyuvchilarga nima deya olasiz.

Reportaj- bu tarifni ikki xil tushinish mumkin.Yaqin yaqinlargacha axborot bo'limi hodimlari, yani repartyorlar yozgan turli ichki materiallarga aytilgan bo'lsa,bugun reportaj axborot janrining maxsus turiga aylandi. Reportaj janri haqida professor F.P.Nesterenkoning fikrlariga qo'shilamiz. U reportajning bir necha unsurlardan tashkil topgani ko'rsatadi.

⁵ Erik .F. Jurnalistikani o'n qoidasi.T:Sharq.2002.78.

-hodisalarni ma'lum ketma ketlikda yoritish,yani hodisa rivoji ma'lum vaqt va ma'lum makonda amalga oshirilishi bilan bog'liq bo'lgan tadrijiy bayon.

-sodir etilgan voqea, hodisa to'g'risida qism, tafsilot,qahramonlar gap so'zi va harakatini bayon etish orqali obrazli tasavvur yaratish.

-imkon qadar hujjatlilik.Reportajda ocherk yoki felyetonda qo'llanadigan badiiy to'qima,konstruksiya va hokazoga yo'l qo'yilmaydi.

-obrazli tahliliylik. Hodisa qanday sodir etilgani xususida savolga javob berayotib, publitsist tadqiqotchi sifatida ish ko'radi.

-bayon etishning emotsianat uslubi,bu matnga qo'shimcha ishonchlilik bag'ishlaydi.⁶

-Reportyorning shaxsiy faolligi,bu –auditoriyani guvoh sifatida hodisani guvoh sifatida ko'rishgagina emas,balki mustaqil ravishda tasavvur hosil qilishga ham undaydi.

Jurnalist o'zi ko'rib turgan voqeani o'z idroki bilan qabul qilib uni yozishi yoki so'zlashi reportaj janrining talabidir.Reportaj voqelikning o'zidir.

Reportaj ‘reportaje‘ degan so'zdan olingan bo'lib, (yetkazmoq, ma'lumot bermoq) degan ma'nolarni bildiradi. Bu janr XIX-asrning birinchi choragida paydo bo'lgan.Davr o'tishi bilan reportaj mukamallashdi va ommaviy janr turiga aylandi. Reportaj turlari ko'p.Telereportaj, radioreportaj,gazeta reportaji.

Reportajning boshqa janrlardan farqi shundaki, unda biror bir voqea hodisani yoritish uchun o'sha voqea hodisada boshidan oxirigacha ishtirok etishi kerak.

Reportyor haqida tadqiqotchi Erik Fixtelius o'zining ‘Jurnalistikaning o'n qoidasi’ kitobida ‘Reportyorning qiziq voqeani topishi jurnalistikaning boshlanishidir’.

⁶Halim .S. Nargiza T.Repartiyorlik mahorati.G'afur G'ulom. T:2008.34.

Yaxshi jurnalist o'z atrofida yuz berayotgan voqealarning barchasiga qiziqishi kerak. U topgan voqea muhim, qiziqarli, jamiyat uchun ibratli va foydali bo'lsin. Repartiyor ko'pincha yuz berayotgan voqealarning shohidi, qatnashchisi bo'lgani holda yangiliklarni birinchi kashf etuvchi hamdir" deb yozadi.

Jahon OAV da axborot tarqatishning shu reportyorlik usuli yetakchi o'rinni egallaydi. Inson hayotining jadallashuvi qabul qilinayotgan axborotning nafaqat qisqa, aniq bo'lishi balki yana bevosita hayotdan olinishi talab qilinadi. Olima Feruza Muhammadjonovanning yozishicha "jonli teleefirning asosiy xususiyatlaridan biri lavha improvizatsiyadir". Chunki televideniya improvizatsiya unsularini mujassam etishi lozim bo'lgan san'at hisoblanadi. Improvizatsiya kerak bo'lgan mahalda bevosita kamera oldida ovozda, harakatda va mimikalarda paydo bo'lgan ilhomdir. Reportyorning nutq tezligi standarti 1 daqiqada 110-120 so'zni tashkil etishi lozim.

Reportajda axborotning hamma turlari uyg'unlashadi. Jurnalist hodisa va voqealar haqida unga ma'qul kelgan jumladan axborotning hisobot barcha imkoniyatlardan suhbat, lavha va boshqa xillaridan keng foydalanish mumkin. Reportajning xususiyati faktlarni sanashdan iborat bo'lmay, balki u voqea hodisalarni u qanday qilgani va baholagani haqidagi jonli aniq materialidir. Reportaj hikoya doimo shu voqea hodisani ko'rayotgan muallf tomonidan olib boriladi. (Ko'pincha muallif bo'layotgan voqea hodisada ishtirok etadi.)

Keying yillarda reportaj bir necha xil turlarga ajralmoqda. Bunda quydagi ruknlar javob beradi.

"reportaj", "lirik reportaj", "tanqidiy reportaj". Axborotning turlaridan biri ma'lumot va jadvaldir. Yana bibliografik axborotlar (kitob javoningizda, yana kitoblar ruknlari ostida beriladi.) ham tez-tez berib boriladi.

Axborotga turlardan yana biri – ma'lumot va jadvaldir. Axborotga ob-havo ma'lumoti, teatr va kinolar, teleradio dasturlari haqida ma'lumotlar ham kiradi.

Bularning barchasi reportajga misol bo'la oladi. Bu janrlarning har birini o'ziga xos murakkabliklari va qiyinchiliklari bor. Har biri muallifdan kuchli mehnat va izlanish bilan yozishni talab etadi.

Matbuot sharhi -(obzori) maxsus va janr bo'lib, matbuotimizni tahlil qiladi. Uning vazifasi gazeta va jurnalning ilg'or tajribalarini umumlashtirish, g'oyaviy darajasini oshirish, kamchiliklarni tanqid qilishdan iborat. Ko'pincha viloyat gazetalari, viloyat va tuman matbuoti faoliyati matbuot sharhida yoritiladi. Matbuot sharhi ahamiyati jihatdan bosh maqolaga teng. Matbuot sharhining badiiy shakli kuzatilgan maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazmun jihatdan matbuot sharhining tematik mavzuviy sharhi, va umumiy sharh axborot sharhi kabi turlari mavjud.

Shu yerda Doniyor Obidovning "Sharhlovchilar haqmi?" sarlavhasi ostida "O'zbekiston matbuoti jurnalining 1996-yil 6-sonida chop etilgan maqolasini to'laligicha keltirish foydadan xoli emas.

Taqriz arabcha so'z bo'lib, ijodiy baho degan ma'noni anglatadi. Adabiy tanqid janri bo'lgan taqrizda O'zbekiston milliy ensklopediyasida yozilishicha "Asarning biografik tasnifi, shuningdek, mazmuni unda ko'tarilgan muammolar, asarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, muallif ijodida, adabiyotda tutgan o'rni haqida malumot bo'ladi; asarga baho beriladi, uning asosiy fazilatlari va nuqsonlari qayd qilinadi".

Publitsistik maqola tarzida XX-asr boshlarida matbuot bilan teng rivojlana boshlangan. Ozod Sharofiddinov O'zbekiston milliy ensklopediyasidagi maqolasida O'zbek adabiyotiga chuqur iz qoldirgan yozuvchilar haqida taqriz yozgan.

Taqriz bu jurnalistikaning mustaqil janri bo'lib, u ikkiga bo'linadi. Tanqidiy biografik maqola adabiy taqriz hamda san'at mavzusidagi maqola teatrda hayotning spektakliga, kinofilmga va boshqa san'at turlariga yozilgan taqriz. Taqriz o'ziga xos xususiyatga ega. Unda ocherk hisobot kengaytirilgan axborot elementlari bo'ladi. Taqrizchi muallif o'z asarida hayotning o'z asarida hayotning u yoki bu

hodisalarini to'g'ri qaysi qoida nuqtai nazaridan yoritilganini asarning badiiy yoki publitsistik jihatdan darajasi qanday kabi savollarga javob berishi lozim.

Tanqidiy fikrlar muallifni xato va kamchiliklarni tuzatishga ruhlantirishi kerak. Xuddi shunday vazifa spektakllar, kinofilmlar, konsert tomoshalari va san'atga oid boshqa asarlarga yoziladigan taqrizga ham qo'yiladi. Bunda teatr jamoalari, bastakorlar, mo'yqalam ustalari, haykaltaroshlar, aktyorlar, dramaturglar, senaristlar va boshqa san'at namoyondalarining ijodiy tahlil etiladi.

Taqriz haqqoniy bo'lishi kerak. Uni qolibga solib bo'lmaydi. Har qanday taqrizga qo'yilgan talab bitta. U umumiy gaplar yig'indisiga aylanib qolmasligi kerak. Jumladan, qaysi bir spektaklga taqriz yozayotgan muallif pyesa mazmunini aytib berish, unda ishtirok etayotgan aktyorlar ismi sharifi va qaysirolni bajarayotganinin sanash bilan cheklanmasligi, balki pyesa bugungi kun javob

beradimi, dramaturgiyasi, rolini aktyorlar to'g'ri topilganmi, teatr o'zining mavjud imkoniyatlaridan to'la foydalanganmi, rejissiyor xizmati va kamchiliklari qanday, badiiy bezagi pyessaning muvaffaqiyatida qanday rol o'ynaydi va boshqa shu kabi savollarga javob berishi kerak.

Ocherk ruscha so'z bo'lib, u badiiy adabiyotning epik tur janrlari bo'lmish kichik qissa yoki hikoyaga yaqin bo'lgan janrdir. Ocherkda publitsistika elementlari mavjud. U o'zining hozirjavibligi, ishonarlighi, haqiqiy hayotda ro'y bergan voqealarni ifodalashi, hujjatlarga asoslangani bilan ajralib turadi. Ocherknavis aniq tarixiy sharoitda bo'lib o'tgan, o'zi ko'rgan guvohi bo'lgan voqeni qalamga oladi, yaratajak qahramoni bilan yuzma yuz suhbatlashadi uning hayotiva faoliyatini aniq ifodalaydi.

Ocherkning tarbiyaviy ahamiyati katta. U yangi odamning axloqiy qiyofasini, xarakterini shakllantirishga yordam beradi, va jurnallarda boshqa janrga xos bo'lgan haqqoniylik, hozirjavoblik, tezkorlik kabi xususiyatlar ocherkga begona emas. Unda badiiy publitsistik janrlari quroli deb bekorga aytishmagan chunki

ocherk saviyasiga qarab matbuotning gazeta jurnal, televideniya yoki radio tahririyatlarining adabiy saviyasini bilish mumkin.

Professor Felikis Petrovich Ocherkda aniq fakt va ma'lumotga tayangan holda inson qiyofasi, dolzarb ijtimoiy muammo va aniq bir jarayonning tahlili badiiy publitsistik tarzda amalga oshirib bir vaqtning o'zida hujjatlilik, aniqlik tezkorlik, adabiy-badiiy vositalar uyg'unlanishuvi kuzatish mumkin degan fikrga to'la qo'shilamiz. Ocherk hikoyadan yagona adabiy badiiy konfliktning yo'qligi va tavsifiy xarakterda bo'lishi bilan farqlanadi.

O'zbek ocherkining asoschilaridan biri yozuvchi Abdulla Qahhor ocherk haqida shunday yozadi. Ocherk ham adabiyotda to'la huquqli janr. Demak gap janrda emas uning qanday yozilganida hikoya hikoyanavisdan qancha mehnat, qancha mohirlik, qancha madaniyat talab qilsa ocherk ham ocherkidan *shuncha mehnat, shuncha mahorat talab qiladi* ⁷

Ko'pchilik uning hayotini va faoliyati bilan qiziqardi. Porterli ocherkning tib berishdan iborat asar qahramonlarining fazilatlarini, xizmatlari qanday yangiliklar yaratgani ko'pchilikga ibrat bo'ladigan ishlarini ko'rsatib berishdan iborat, muammoli ocherkda bazi fakt va hodisalar odamlarning muayyan vaziyatdagi portreti bilan bir qatorda ishlab chiqarish qahramonlari fan va sanatning ilg'or namoyondalari obrazi umumlashtirilgan holda yoritiladi. Ko'p hollarda haqiqiy qahramonlar ismi sharifi o'zgartirilgan holda bo'ladi.

Shahar, korxonalar, muassasa, tashkilot, idora turki qo'shma korxonalarining nomi o'zgartirilgan holda bo'ladi. O'quvchilarning bu maqolani o'qigan gazetxonlarning fikri asosan mavzuga yo'naltirilgan bo'ladi.

Felyeton-publitsistikaning ajralmas qismi sifatida faoliyat ko'rsatadigan ommabop badiiy publitsistik janrdir. Felyeton fransuzcha so'z bo'lib, Feuille-varaq, varaqa degan ma'noni bildiradi.

⁷To'lqin.Q. Jurnalistika asoslari. "Musiqqa". T:2002.21.

Felyeton atamasi 1800-yil 28-yanvarda fransuz gazetalaridan biriga ilova tariqasida qo'shib chiqarilgan voqea nomi bilan bog'liq . Ammo felyeton janr sifatida bundan oldinroq paydo bo'lgan. Felyeton bizning tushunishimiz bo'yicha o'ziga xos maxsus uslubda mavjud muammolarni o'tkir satira tilida ifoda etadigan janr. Felyeton ijtimoiy hayotdagi bazi salbiy voqea va hodisalarni yoki ayrim kishilarga ko'pincha katta amaldagi kishilarga xos nuqsonlarni hajv qilishi bilan boshqa janrlardan ajralib turadi. Muallif o'zi tasvirlayotgan felyeton qahramonining nuqsonlarini ochib tashlash, qoralash maqsadida satirik mubolag'adan bazan, hatto fantastik ta'sir uslubidan foydalanadi.

Parodiya yunoncha so'z bo'lib-zid qo'shiq degan ma'noni bildiradi. Olim Muhsin Qodirovning yozishicha parodiya, adabiyot, teatr musiqa va estrada janri kulgi sanati, hajv va hazl turlaridan biri. O'ziga xos harakat tarzi biror uslub yo'nalish janr yoki muayyan qolibdagi nutq va hajviy kinoyaviy yumor bilan yondashish maqsadida ko'zlab qilingan ongli taqlid. Biror san'atkor ijodi yoki ayrim asarning uslubiga taqlid qilish yo'li bilan yaratilgan kulgili asar. Badiiy ijod sohasida muayyan dunyoqarashi, g'oyaviy pozitsiyasi shuningdek, ijodiy hayotdagi har xil illatlar parodiya obyekti bo'la oladi. Shu jihatdan parodiya boshqa janrlardan ajralib turadi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, har bir janrning jurnalistikada o'z o'rni bor. Masalan maqola janrini olaylik mamlakatdagi turli o'zgarishlar iqtisod, siyosat, madaniy-marifiy va boshqa yangiliklarni yoritish, shu bilan birga jamiyatdagi turli illatlar, muammoli masalalarni fosh etishda maqolaning o'rni beqiyos. Xabar janrida esa, biz dunyodagi hamda atrofimizda bo'layotgan eng so'nggi yangiliklardan xabardor bo'lishimiz mumkin. Jurnalistikadagi qiziqarli va mashaqqatli janrlar suhbat va intervyudir. Fan, madaniyat, sport va san'at sohalarida ulkan yutuqlarga erishgan insonlar bilan suhbat uyushtirish orqali, o'sha sohadagi yutuq bilan keng jamoatchilikni tanishtirib borish, davra suhbatida esa biror bir qiziqarli yoki muammoli mavzu yuzasidan bahs uyushtirish orqali masalani yechimini topish kabi vazifalarni bajaradi. Yana shunday qiziqarli

janrlardan biri taqriz janri hioblanadi.Unda biror bir asar tahlil qilinadi.Taqrizchi, muallif o'z asarida hayotning u yoki bu hodisalarini to'g'ri,qaysi g'oya nuqtai nazaridan yoritgan, mavzu qanchalik ochib berilgan,voqea aniq va to'g'ri ifoda etilganmi,kabi savollarga javob topishi kerak.Felyeton o'ziga xos maxsus uslubda muammolarni o'tkir satira tilida ifoda etadigan asar.U hayotdagi salbiy voqea va hodisalarni hajv qilishi bilan boshqa janrlardan farq qiladi."Xurshid "gazetasining (1906-yil 21-sentabr sonida) "Tarki odat - maqol" felyetonida qoloqlik,to'ylardagi isrofgarchilik tanqid qilingan.Barcha uchun qiziqarli bo'lgan epigramma janrida hajv rasmlar,sharj yani o'rtoqlik hazillarida qo'llaniladi.Bazan epigrammada aniq nomi berilmasada,byurokrat,aroqxor,giyohvant,laganbardor kimsalar umumlashtirilib hajv qilinadi.Haqiqiy jurnalist bu janrlarning baridan xabardor bo'lmog'i hamda ularni o'z o'rnida qo'llay olmog'i shart.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Halim Saidov, Nargiza To'xliyeva Repartiyorlik mahorati.Toshkent .2008
- 2.To'lqin Qozoqboyev Jurnalistika asoslari.Toshkent. 2007.
- 3.To'rtinchi hokimiyat Toshkent .2003."Mehnat" nashryoti.
- 4.Erik Fixtelius Jurnalistikaning o'n qoidasi.Toshkent .2002. "Sharq" nashiryoti.
- 6.Ziyo.COM. sayti.
- 7.LexUZ sayti.